

DIDAKTIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI OSHIRISH.

Saydullayeva Shahlo Sobirovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish, didaktik texnologiyalarni dars jarayonida keng qo'llash yo'llari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni tadqiq qilish, dars jarayoni samaradorligini oshirish usullari yoritib beriladi.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *didaktik texnologiya, innovatsion kasbiy mahorat, didaktik o'yinlar.*

Bugungi kunda , o'qituvchilarning bilim saviyasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatini kengaytirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarning ta'lim jarayonini tadbiriq qilish, ularda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalar bilan tanishish va ularni keng qo'llash chora-tadbirlari ko'rib chiqilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-139-sonli farmoniga muvofiq 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturda ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish, ilg'or tajribaga ega bo'lgan va faoliyatida zamonaviy metodikalarni qo'llaydigan o'qituvchilarni aniqlash kabi bir qancha yo'nalishlar keltirib o'tilgan. Qo'shimcha tarzda, " O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6- nayabrdagi " O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6018-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4884-son qarorida mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillahtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya hamda ilm-fan sohalarining yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi"(1-93).

Har bir sohada ma'lum bir talablar bo'lgani kabi, Zamonaviy pedagog bo'lishning o'ziga munosib bir qancha talablari ham mavjud. Ulardan biri "rivojlanish"dir. Ta'lim jarayonida ham bir qancha rivojlanish bosqichlari mavjud. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan qaraydigan bo'lsak, ular o'zining faoliyat jarayonini rivojlantirishi uchun, albatta, zamonaviy chet el ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi lozim. Buning uchun, zamonaviy o'qituvchi-pedagog zamon bilan hamnafas bo'lishi, kreativ fikrlaydigan, har bir kirib kelgan yangilikka o'zining shaxsiy fikrini bildirsa

oladigan, o'z ustida tinimsiz ishlab, o'zini-o'zi tanqid qila oladigan va rivojlantira oladigan bo'lmog'i lozim. Jumladan, zamonaviy pedagog didaktik o'yinlarni qo'llash orqali mahoratini oshirib borishi mumkin. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktika atamasi 17-asrda ilk bor o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlangan. Didaktika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, 'o'rgatuvchi', "ta'lim beruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Keyinchalik didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qaraladigan bo'ldi. Didaktik o'yinlarni maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishga doir qo'llanmalarni F. Fribil va M. Montisorilar ishlab chiqqan bo'lsa, O. Dikroli boshlang'ich ta'lim bo'yicha ishlar olib borgan. Didaktik texnologiyalarning asosiy maqsadi bolani ham jismonan ham manan yetuklikka ko'tarish va ularni har bir fanga qiziqishini uyg'otish hisoblanadi. Didaktik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchi ijtimoiy va moddiy olamni bilishi va anglashi asosida emotsional-hissiy va intellektual-axloqiy rivojlanib boradi. O'yin vositasida bolalar tevarak-atrofni, borliqni va hayotni o'rganadi va his qiladi.

O'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan o'yin faoliyati uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar hisoblanadi. O'quvchilarning bilimini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limdan keyingi bosqichlarida ham bolalarning bilish faoliyatini kengaytirishga turtki bo'ladi. Didaktik o'yinlarning eng ustuvor vazifasi bolalarning diqqatini dars jarayoniga jalb qilish hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning o'quvchi hayotidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ — muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalaiga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi".(2-115)

Yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlarning vazifalaridan biri shaxsning muloqotga kirishish(kommunikativ) madaniyatini egallashga yordam berishidir. Ya'ni o'quvchilarni dars jarayonida erkin fikrlay olishini, fikrini to'liq yoritib bera olishini, bundan tashqari, so'z boyligi kengayishini ta'minlab beradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga jismoniy va estetik ko'nikmalarni ham yuzaga chiqaradi.

Didaktik o'yinlarni aqliy, harakatli hamda aralash turlari mavjud. Didaktik o'yinlarni qo'llashdan avval o'qituvchi tomonidan o'yinning mavzu bayoniga munosibligi, uning yo'naltiruvchi va ta'limiy xususiyatlari, o'quvchilarning yoshiga, bilim saviyasiga mosligi, o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq bo'lishi, uning maqsadi va ahamiyati belgilanishi ko'rib chiqilinadi. O'yin barcha talablarga javob bergandan so'nggina uni qo'llash lozim. Jumladan, didaktik o'yinlarni tanlashning bir necha tavsifiya etilgan bosqichlari mavjud:

1. Ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha- o'smirlar, katta yoshdagilar, o'g'il bolalar, qiz bolalar;

2. Qatnashuvchilarning soni bo'yicha- kichik guruh, katta guruh, yakka tarzda, juft holda, jamoalar, sinflar aro;

3. o'yin jarayoni bo'yicha- harakatli, fikrlash orqali, topog'onlik va turli musobaqalarga yo'naltirilgan o'yinlar;

4. vaqt meyori bo'yicha- mashg'ulotning reja bo'yicha ajratilgan qismi, g'olib aniqlanguncha olib boriladigan o'yinlar;

"Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir.

Mazmuniga ko'ra: tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralsh turdagi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra: musobaqa o'yinlar, sahnali o'yinlar.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi: 1; O'yinning vazifasi. 2; O'yinning harakati. 3; O'yinning qoidasi. 4; O'yinning yakuni."(3-7)

Didaktik o'yinlar haqida sharq mutafakkirlarining fikrlarini ham keltirib o'tishimiz mumkin. Garchi olimlarning jumllarida "didaktik o'yin" atamasi aynan kelmasa ham, dars o'tishning usullari haqida tavsifiyalar keltirilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Munis, Alisher Navoiy kabi olimlarning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim jarayoning sifatini oshirish kabi qarashlari ta'lim taraqqiyotida o'ziga xos bosqichni tashkil etadi. Alisher Navoiy bobomizning "Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari ta'lim-tarbiya va odob-axloq masalalariga bag'ishlangan. "Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o'stirish yo'llarini ko'rsatadi"(4-). Abu Rayhon Beruniy o'quvchilarga bilim berish jarayonida quyidagilarni tavsifiya qilib o'tgan:

"-o'quvchini zeriktirmaslik;

-bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

-uzviylik, izchillik;

-tahlil qilish va taqqoslash;

-ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan murakkabga qarab borish;

-takrorlash;

-yangi mavzuni ko'rgazmali bayon etish va hakazolarga e'tibor berish kerak ekanligini uqtiradi".(5-)

Hozirgi kunda zamonaviy didaktik metodlarning sanog'i yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu metodlardan biri "Oilaviy munozara" hisoblanadi. Bu didaktik o'yinni quyidagi holatda qo'llashimiz mumkin:

O'quvchilarni 2ta kichik guruhlarga bo'lib olamiz, ular aylana tarzda o'tirib olishadi. Ularni oila nomlari bilan nomlaysiz. Masalan, Bahromovlar hamda Ilhomovlar oilasi. Bir o'quvchi guruh boshi, ya'ni oila "otasi" bo'ladi. Ikkala oiladan ham "otalarni" yonimizga chaqirib, ularga mavzuga oid qiyin va qisqaroq ma'lumotlar yozilgan varoqni beramiz. "Otalar" ma'lumotlarni 2 daqiqa ichida yaxshilab o'qib, eslab qolib, o'z "oilalariga" yetkazib borishlari kerak. Ma'lumotni yetkazish uchun esa 3 daqiqa vaqt bering. 3 daqiqadan so'ng oilalar navbat-navbat bir-birlariga o'sha mavzu yuzasidan savol berishadi. Bir savolga faqat bir oila a'zosi javob beradi. "Otalar" kim javob berishini belgilab berishadi, o'zlari esa savol-javobda ishtirok etishmaydi.

Keyin esa "ota" qariydi, katta farzand xuddi "ota" kabi informatsiya yetkazib kelishni bo'yniga oladi. Shu tarzda 3-5 marotabagacha takrorlashingiz mumkin. Eng ahamiyatli joyiga to'xtaladigan bo'lsak, biz hozirda ta'lim orqali tarbiya berishimiz lozim. Bu metodning tagida juda katta tarbiyaviy ma'no bor. Shular haqida ham o'yin so'ngida o'quvchilarga gapirib o'tamiz. Bu metod o'quvchilarning xotirasini rivojlantirishga, ziyrakligini oshirishga, bundan tashqari, o'g'il bola o'quvchilarda ma'suliyat hissini singdirishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini oshirish" (1-94)
- 2."Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"(Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2009).
- 3.Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti" ("O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013)
- 4.Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniylarning ta'limiy axloqiy qarashlari(20.09.2019).
- 5.S.Qurbonov "Didaktik o'yinlar" Urganch-2011.